



SARLAVHANING LINGVOMADANIY VA LINGVOPRAGMATIK XUSUSIYATLARI TAHLILI

Abdullayeva Kamola Mirxon qizi

PhD, Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası

katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Sarlavha har qanday asar yoki ishning eng muhim qismlaridan biri sanaladi. Sarlavha tanlash muallifning intellektual mahorat darajasini belgilab berganligi bois alohida e'tiborni talab qilib, badiiy matnning qisqacha mazmuniga ishora qiladi. Shu sabali ham sarlavhaning tahlili alohida e'tiborni talab etishi bilan xarakterlanadi.

Kalit so'zlar: implisitlik, uslubiy markerlanganlik, ramziylik, konseptual mohiyat, freym tahlil.

Annotation: The title is considered one of the most important parts of any literary work. The choice of the title requires special attention, since it determines the level of intellectual skill of the author and indicates the brief content of the literary text. For this reason, the analysis of the title is characterized by requiring special attention.

Keywords: implicitness, stylistically markedness, symbolism, conceptual essence, frame analysis.

Аннотация: Заглавие считается одной из важнейших частей любого произведения или работы. Выбор заглавия требует особого внимания, так как оно определяет уровень интеллектуального мастерства автора и указывает на краткое содержание художественного текста. По этой причине анализ заглавие характеризуется тем, что требует особого внимания.

Ключевые слова: имплицитность, стилистическая маркированность, символизм, концептуальная сущность, фреймовый анализ.



Sarlavha matn bilan murakkab mazmuniy munosabatga kirishish xususiyatiga ega bo'lib, uning mazmuniy va estetik tarkibi jihatidan muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, u muallifga xos bo'lgan konseptual olam manzarasini aks ettirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan murakkab kognitiv tuzilma hamdir. Sarlavha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, implisitlik, uslubiy markerlanganlik, ramziylik, konseptual mohiyatga ega bo'lish kabilarni eng muhimlari sifatida qayd etish mumkin.

Badiiy asarning qahramon nomi bilan atalishi shundan dalolat beradiki, ushbu obraz asardagi boshqa personajlarga nisbatan alohida belgiga yoki tom ma'noda e'tiborga loyiq hisoblanadi. Shuningdek, asarlar uchun nafaqat bosh qahramon nomlari, balki geografik hudud nomlari ham badiiy asar sarlavhasi sifatida qo'llanila boshlagan. Keyinchalik sarlavhalarda qahramon nomining yonida uni tavsiflovchi sifatlashlar paydo bo'la boshladi, bu esa o'quvchi e'tiborini asarning bayon qilish uslubiga jalb etishga xizmat qildi. O'tgan asrda aksariyat yozuvchilar shuni anglab yetishdiki, sarlavha faqatgina badiiy asar mavzusinigina ko'rsatib qolmay, uning g'oyasini ham o'zida aks ettirgan holda muayyan atmosfera muhitiga ham ishora qilishi va shu orqali kitobxonni asarga qiziqtirishi ko'zda tutilgan. Bunday asarlar jumlasiga Jeyn Ostin tomonidan yozilgan *“Sense and Sensibility”* (“Aql va tuyg'u”) asarini kiritish mumkin.

Sarlavha tasniflashda asos sifatida ikki xil mezonni qo'llashimiz mumkin: a) mazmun va vazifasiga ko'ra; b) tuzilishiga ko'ra. Jumladan, sarlavhalarni mazmun va vazifaviy nuqtayi nazardan quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- a) asarning asosiy mavzusini ta'kidlab ko'rsatuvchi:

“For Whom the Bell Tolls”, “For the Duration of the War”, “The Power of Language is such that even a Single Word Taken Truly to Heart Can Change Everything”

yoki “Sen yetim emassan”, “Qalbingga quloq sol”, “Muzqaymoq”.

- b) ta'sirchanlikni ifodalovchi:



“Gone with the Wind”, “Hard Times”, “Painful Case”,
yoki “Sog‘inish”, “Singan umid”, “Tuyg‘ular”, “Muhabbat”, “Ayriliq”,
“Umid”, “Sevgi”.

c) yashirin ma'noga ishora qiluvchi:

“Castle of Indolence”, “Mistaken Identity”, “The Perfect Murder”, “The
Escape”

yoki “Nur borki, soya bor”, “Qiyomat qarz”, “Bahor qaytmaydi”.

d) asar syujetidan keskin farq qiluvchi:

“The Naked and the Dead”, “The Masque of the Red Death”,

yoki “Yozning yolg‘iz yodgori”, “Ikki eshik orasi”, “Yoz yomg‘iri”.

Shuningdek, tuzilishiga ko‘ra sarlavhalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

a) Geografik hudud nomi bilan ataluvchi:

“Ernest Thompson Seton’s America”, “A Ramble in Saint James’ Park”,
“Natural history of Jamaica” yoki “Farg‘ona hikoyalari”, “Samarqand afsonasi”,
“Go‘zal Farg‘ona”.

b) qahramonlarning ismlariga ishora qiluvchi:

“Jane Annie”, “Gabriel-Ernest”, “Dr.Fisher”, “Rip Van Winkle”, “Jane
Eyre”

yoki “Obid ketmon”, “Yorqinoy”, “O‘rtoq Qarshiboyev”, “Gulnor opa”,
“Asror bobo”, “Matluba”.

d) vaqt va joyni ko‘rsatuvchi:

“From Here to Eternity”, “A Space Odyssey”, “The Deer Park”, “An
Evening in Bysantium”, “Bullit Park”,

yoki “Baxtlar vodiysi”, “Ufq”, “Daryolar tutashgan joyda”, “Yashil qishloq”,
“Kuzning birinchi kuni”.

e) Raqamlar qatnashuvchi:



“1984”, “Nineteen Nineteen”, “The Thirty-Nine Steps”

yoki “O‘n ikki”, “O‘n birlar”.

f) maqollar va uslubiy vositalar (metafora, sifatlash, qarshilantirish)dan foydalanilgan holda nomlanuvchi:

“Gift of Magi”, “Vanity Fair”, “The Importance of Being Earnest”, “Out of Nowhere into Nothing”, “Sooner or Later or Never Never”, “Where there is a Will”, “Painted Veil”,

yoki “Jar yoqasidagi chaqmoq”, “Bo‘ronlarda bordek halovat”, “Yaxshilikka yaxshilik”, “Qanotlan, qo‘shiqlarim”.

e) *So‘roq shaklida ifodalanuvchi:*

“Netay”, “Kurash nechun?”, “Odamlar nima derkin”, “Advokatlik osonmi?”.

Yuqorida keltirilgan asar nomlariga e‘tibor berilsa, ingliz adabiyotida asarlarning so‘roq shaklida nomlanishi yoki sarlavha tanlanishi holati kuzatilmaydi.

Badiiy matnni kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlil qilishda uning implisitlik xususiyatini tahlil qilish muhim jihatlardan biri sanalib, implisitlikning turlari bir-biridan muayyan belgilariga ko‘ra farqlanadi. Xususan, ichki implisitlik xususiyatiga ega bo‘lgan sarlavhani tushunish lokal turidan farqli ravishda badiiy matnni to‘liq tahlil etishni, tarixiy, madaniy bilimlarga ega bo‘lishni talab etadi. Darhaqiqat, o‘zbek adabiyotida ham yozuvchilar tomonidan asar uchun sarlavha tanlashga alohida e‘tibor qaratilishini, ushbu jarayonda zukkolik, sinchkovlik muhimligini Odil Yoqubovning “Muzqaymoq” hikoyasi orqali tahlil qilsak. Odatda, “Muzqaymoq” so‘zi bir qarashda “qaymoq, sut, meva suvi va shu kabilardan muzlatib tayyorlanadigan shirin yegulik, yaxna shirinlik” [4] bilan aloqador tushuncha bo‘lsa-da, ushbu real voqelikka asoslangan asar o‘g‘liga muzqaymoq olib berolmay armonda qolgan ota haqida hikoya qiladi.





Tahlil uchun tanlangan misolning ichki mazmunini ochib berishda bevosita freym tahlil muhim sanaladi. Zero, tushunish va talqin qilish matn tuzilmalari bilan chegaralanmasdan, balki matnga aloqador o'zaro munosabatga kirishish hamda mantiqiy aks ettirish xususiyatlariga asoslangan kognitiv tahlilni taqozo etadi [1]. Freym tahlil jihatdan qaralganda muzqaymoq, odatda, xursandchilik, bayram kunlarini eslatuvchi yegulik sifatida keng qo'llanilsa-da, ushbu asarda muallif tomonidan o'g'liga muzqaymoq olib berolmay armonda qolgan otaning bolasiga munosabatini, mehr-muhabbatini aks ettiruvchi vosita bo'lib xizmat qilganligini kuzatamiz.

1- chizma.

Freym tahlil.



Otaning alamli holatini, oilaning tushkun kayfiyati aks ettirilgan mazmunni asar sarlavhasidan emas, balki faqat asarni o'qish davomida anglash mumkinligi sababli ham ichki implisitlikka yaqqol misol bo'ladi. Zero, ushbu holat asar davomida takror-takror ta'kidlangan ifodalar orqali kitobxonga osongina anglashiladi:



“Rahmatlik dadamlar, uyqusizlikdanmi, boshqami – ko‘zlari qizargan, allaqanday horg‘in ko‘rindilar menga. U kishi hansiray-hansiray aytgan gaplarimni eshitdilar-u, chehralari sal yorishib:

– Yur, bolam! – dedilar boshimni silab. – Senga bitta muzqaymoq oberay! Boya aytganimdek, dadamlar diydasi qattiqroq, o‘ktam, kamgap odam edilar. O‘sha kungacha men u kishining biror marta boshimni silaganlarini bilmasdim” [2].

Tahlil qilingan matndan ko‘rinadiki, muallif tomonidan bejizga “Muzqaymoq” asar sarlavhasi etib tanlanmagan, chunki u juda qattiqqo‘l, talabchan (*diydasi qattiqroq, o‘ktam, kamgap; biror marta boshimni silaganlarini bilmasdim*) otaning farzandiga nisbatan mehr-muhabbatini aks ettiruvchi vosita bo‘lib xizmat qilgan.

– Umrimda bir marta senga muzqaymoq olib bermoqchi bo‘lgandim, bu ham nasib qilmadi-yov, bolam! – dedilar, u kishi allaqanday chuqur o‘kinch bilan.

Shuningdek, muallif tomonidan sarlavha nomining badiiy matnda qayta-qayta takrorlanishi (*muzqaymoq olib bermoqchi bo‘lgandim*) yozuvchi aks ettirmoqchi bo‘lgan mazmunni yana-da ta’kidlab ko‘rsatishdan tashqari, qahramondagi achinish, pushaymonlik hissini (*chuqur o‘kinch bilan*) namoyon etish ko‘zda tutilgan.

– Hay, attang! – dedilar to‘satdan ko‘zlariga yosh olib. – Umrimda bir marta senga muzqaymoq olib bermoqchi bo‘luvdim. Shuniyam evlayolmadim-ov, bolam!..

Asar sarlavhasi orqali ifodalangan mazmunni yaqqol ochib berishga xizmat qiluvchi yuqoridagi parcha muallifning vaziyatga munosabatini aks ettirishdan tashqari, qahramonning afsusi hamda dildagi alamini ham namoyon etishga xizmat qilgan. Bundan tashqari, muallif otaning bolasiga g‘amxo‘rligi, otalarcha mehrini mayda detallar (*Bu pulga daftar-kitob ol!*) orqali yaqqol verballashtirganini quyidagi matndan ko‘rishimiz mumkin:





– Umrinda bir marta senga muzqaymoq olib bermoqchi bo'lgan edim, bu ham nasib etmadi. Bu pulga daftar-kitob ol! Qolganiga muzqaymoq olib ye, o'g'lim!..

Yuqoridagi parchalarda muallif tomonidan mohirlik bilan qo'llangan til vositalari, ayniqsa undov belgisining ishlatilishi ma'noni kuchaytirish, ta'kidlash orqali nafaqat muallifning jamiyatda sodir bo'layotgan voqealarga nisbatan subyektiv munosabati, balki qahramonning ichki kechinmalari ifodalangan. Shu bilan bir qatorda, ushbu til unsurlari muallifning ichki kechinmalari, konseptual olam manzarasini aks ettirishga ham xizmat qilgan. Shuningdek, ushbu tasvirlar muallif tomonidan insonlarga xos ichki olam manzarasi, uning his-tuyg'ulari yaqqol namoyon bo'lishi quyidagi parcha orqali ochib berilgan:

Qattiq oqsoqlanib yuradigan bu yigitcha bizga qo'shni bo'lmish raykom kotibining qaynisi bo'lib, dadam qamalganlaridan keyin menga o'qrayib qaray boshlagan edi.

Shuningdek, Sh.Xolmirzayevning “Qilko'prik” nomli asari sarlavhasi implisitlik xususiyatiga ega bo'lib, uni tushunish nafaqat lingvistik bilimlar va muallifning madaniyati, ijtimoiy kelib chiqishi kabi omillar, shuningdek, muallifning shaxsiyati, kasbiy faoliyati, odatda, muayyan tabaqalargina xabardor bo'ladigan tor doiradagi guruhlariga bog'liq ma'lumotlar haqida ham bilishni talab qilgani sababli implisitlikning chuqur (тёмный) turi sifatida talqin qilish mumkin [3]. Xususan, ushbu sarlavhada qo'llangan so'zning ma'nosi “sirot” so'zi bilan sinonim tarzda izohlanadi: Sirot (arab. — yo'l) — islom manbalarida qiyomat kuni, oxiratda jannatga borish yo'lida jahannam (do'zax) uzra tortiladigan qilko'prik [5]. Diniy e'tiqodga ko'ra, jannatga eltuvchi yagona yo'l mazkur („soch tolasidan ingichka, shamshirdan o'tkir“) ko'prik bo'lib, har bir banda undan o'tishga majbur etiladi. Ba'zilar tez, ba'zilar sekinroq o'tsa, ba'zilar qulab, jahannamga ravona bo'ladi. Ushbu asarda mustabid tuzum davridagi xalqning turmush-tarziga oid maishiy masalalar yoritib berilgan bo'lib, muallif tomonidan sarlavha sifatida aynan shu tarzda nomlash orqali xalqning hayoti qanchalik qaltis





vaziyatda ekanligiga ishora qilish maqsadi ko'zda tutilgan bo'lib, bu mazmunni anglashda faqat badiiy matn bilan tanishib chiqishning o'zi yetarli bo'lmasdan diniy bilimlarga ega bo'lish ham talab etiladi.

Shunday qilib, yuqorida amalga oshirilgan tahlillar natijasi o'laroq, ta'kidlashimiz joizji, badiiy matn uchun tanlangan sarlavha qisqa bo'lishiga qaramay, asar mazmuni haqida kitobxonda ilk tasavvur, keng tushuncha paydo qilish bilan birga muallifning intellektual qobiliyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ashurova D.U., Galieva M.R. Text Linguistics. – Tashkent: Turon Istiqbol, 2016. – P.187.
2. Yoqubov O. Onaizor: qissalar va hikoya / O.Yoqubov. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – B. 269-274.
3. Молчанова Г.Г. Семантика художественного текста (импликативные аспекты коммуникации). – Ташкент: Фан, 1988 – 168 с. – С.105.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – Б.630.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2020. – Б.523.